

Mavzu: O'zbekiston daryolari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

Reja:

Kirish.

I Bob. O'zbekiston daryolarining gidrografik turi.

1.1 O'zbekistonga tabiiy geografik tavsif.

1.2 O'zbekiston daryolarining geografik joylashuvi.

1.3 O'zbekistonning asosiy daryolari va ularning to'yinish manbalari.

II Bob. O'zbekiston daryolarining qishloq xo'jaigi rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.

2.1 Qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda daryolarning roli va ulardan foydalanish.

2.2 Qishloq xo'jaligini rivojlanishida daryo suvlarining taqsimlanishi va minyerallashish darajasi.

2.3 O'zbekiston xo'jaligida daryolardan foydalanishda suvlarni toza saqlash.

Xulosa.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Har qanday hududning tabiiy sharoiti, iqlimi, tabiiy boyliklari va yer-suv resurslari bilan o'z rivojlanish taraqqiyotini va xalq xo'jaligining barcha sohalarida yangilik va yuqori cho'qqilar pillapoyasini belgilab olmoqda. Shunday tabiiy sharoiti qulay hududlardan hisoblangan O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. O'zbekiston materikning ichki qismida joylashganligi uchun uning daryolari okean va dengizlarga quyilmaydi. Binobarin, berik havzaga qaraydi. O'zbekiston xududida daryolar rel'efga qarab turlicha joylashgan, ya'ni daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas.

Tekislik qismida daryolarning siyrak, tog'li qismlarda esa ancha zich joylashgan. Adirlar qismida ham birmuncha zichroq.

O'zbekiston daryolaridan xalq xo'jaligining farcha tarmoqlarida foydalanilmoqda. Chunki daryolar muhim tabiiy boylik sifatida xalq xo'jaligi taraqqiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bugungi kunda iqlimi quruq, sug'orib dehqonchilikka asoslangan O'zbekistonimiz uchun daryolarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati katta. Bunday daryolar qatoriga Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo, Qoradaryo va Sherobod daryolari kiradi. Bu daryolardan xalq xo'jaligida foydalanish uchun avvalo ularni toza saqlash, ifloslantirmaslik chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. O'zbekiston daryolari suvlarining ifloslanishida zavod –fabrika, kommunal xo'jalik, transport va sog'lomlashtirish tashkilotlaridan chiqayotgan 300-350 mln kub metr iflos oqovalar sabab bo'lmoqda. Bunday noxush xolatlarni oldini olish uchun mamlakatimizda kanalizatsiya va tozalash inshootlari mavjud.

I Bob. O'zbekiston daryolarining gidrografik turi.

1.1 O'zbekistonga tabiiy geografik tavsif.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Uning hududini asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan.

O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoliy-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida bo'lib $45^{\circ} 31'$ Shimoliy kenglik. Eng janubiy chekka nuqtasi Tyermiz shaxri yonida, Amudaryo qirg'og'ida $37^{\circ} 11'$ Shimoliy kenglik. eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida $56^{\circ} 00'$ Sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa O'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida O'zgan shahri yonida bo'lib $73^{\circ} 10'$ Sharqiy uzoqlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa 925 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtalari orasidagi masofa 1400 km.

O'zbekiston janubiy sharqda Tojikiston bilan sharqda Qirg'iziston bilan shimol va shimoliy-g'arbda Qozog'iston bilan, janubiy g'arbda esa Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda Surxon-Shyero bod vodiysida Amudaryo orqali Afg'oniston bilan chegaradosh.

Umumiy chegara uzunligi 6221 km, shundan 137 km Afg'oniston O'zbekiston chegarasiga tog'ri keladi.

O'zbekistonning umumiy maydoni 448,9 ming km^2 bo'lib, Norvegiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston, Belgiya, Gollandiya va Danya kabi davlatlarning umumiy maydonidan ham 4 marta kattadir, Shvetsariya davlati hududidan 10 marta ziyod.

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra juda qulay, uning hududi O'rta Osiyo markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga syerob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning 71% qismini tekisliklar egallagan.

O'zbekiston O'rta Yer dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir kenglikda joylashgan lekin iliq okean va dengizlarda uzoqda, matyerik ichkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jihatidan butunlay farq qiladi. Chunki O'zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo'lib shimoldan va shimoliy-

sharqdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi bemalol ichki qismlarga etib keladi. Aksincha, janubda baland tog'larning mavjudligi esa Hind okeanidan esadigan nam va iliq havo massalarini O'zbekiston hududiga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, oqibatda subtropikka xos bo'lmagan landshaft vujudga kelib, yoz bulutsiz, syeroftob, jazirama issiq, quruq, qish esa ancha sovuq bo'ladi. O'zbekiston suptropik iqlim mintaqasida joylashgan bo'lsada cho'lga xos bo'lgan landshaft bilan tavsiflanadi. Faqat atrofi tog'lar bilan o'ralgan Surxon-Shyero bod vodiysidagina quruq subtropik landshaft mavjud.

O'zbekiston hududi janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbga qarab cho'zilib o'sha tomonga pasayib boradi, yer yuzasi tuzulishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining katta qismi dehqonchilik uchun qulay vodiylar va tekisliklar va tog' oldi tekisliklaridan iborat. Tekislik yerlari ko'p bo'lishi va bu joylardan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Qashqadaryo kabi daryolarni oqib o'tishi, iqlimning qulayligi, sug'orma dehqonchilikning qadimda rivojlanishiga imkon bergan.

Arxeologlarning malumotiga ko'ra Surxondaryo, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Farg'ona va Toshkent vohalarida miloddan oldingi 3000-2000 yillarda aholi sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Metall eritib har-xil mehnat va ov qurollari, ziynat buyumlari, oyna va kulolchilik buyumlari tayyorlaganlar va matolar to'qiganlar.

O'zbekistonning geografik joylashuvi qulay bo'lganligi tufayli g'arb bilan sharqni bog'lovchi mashhur "Ipak yo'li" o'tgan. Bu esa uni iqtisodiyotini madaniyatini rivojlanishiga sababchi bo'lgan. O'zbekiston tabiiy sharoiti xilma-xil yozda ham qor va muz bilan qoplangan balandligi 4688m ga etuvchi Hazrati Sulton cho'qqisi, dengiz sathidan -12m pastda turuvchi Mingbuloq botig'i mavjud.

Respublikamizda yozda harorat oftobda 70-80⁰ etuvchi, eng kam yog'in tushuvchi (Orolbo'yida 70-80 mm) cho'llar bilan birga syernam va salqin (700-1000 mm) tog'lari, qishda ham yanvarning o'rtacha harorati 0⁰ dan pastga tushmaydigan Surxon-Shyero bod kabi quruq subtropik vodiy mavjud. Tekislik qismida yuzlab chaqirimda birorta daryoni uchratmaysiz, tog'larda har qadamda

jilg'a, soy, sharshara hosil qiluvchi sho'x daryolarni uchratasiz. Yer usti boyliklaridan tashqari yer osti boyliklari bilan ham mashhur. Uning hududida oltin, mis, volfram, qo'rg'oshin, neft, gaz, ko'mir, dala shipati, `alyuminiy hom-ashyosi, marmar, granit, grafit, har-xil tuzlar va minyeral hom-ashyo boyliklari mavjud. O'zbekiston hududida 12 viloyat va Qoroqolpog'iston Respublikasi joylashgan.

1.2 O'zbekiston daryolarining geografik joylashuvi.

O'zbekistonda daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas. Umumiy yer maydonining 71 % ishg'ol qilgan tekisliklarda, daryo tarmoqlari siyrak bo'lib 1km² ga 2 m (qo'shni respublikalarda 140 m gacha), 17 % hududni egallagan adirlarda daryo tarmoqlari zichlashib boradi. Lekin sug'orish shahobchalari ko'pligi sababli ularning suvi har tomonga tarqalib sug'orishga sarflab yuboriladi. O'zbekiston yer maydonining 12 % ishg'ol qilgan tog'li qismida 1 m kv 140-150 m daryo tarmoqlari to'g'ri keladi. Respublikamizda daryolarning zichligi relef va yog'inga bog'liq bo'lib tog'larning g'arbiy qismida 1000-1500 mm yog'in tushadigan yonbag'irlardan boshlanuvchi Norin, Zarafshon, Chirchiq, Qoradaryo daryolari ser suv aksincha tekislik qismida esa yog'in 80-200 mm bug'lanish 1500-2000 mm ekanligi oqimning vujudga kelishiga to'sqinlik qiladi. O'zbekiston daryolari asosan tog'li qismlarda hamda Qirg'iston va Tojikistondagi tog'lardan suv oladi. Agar Amudaryo va Sirdaryoning yillik oqimini 100 % desak Amudaryoning 8 %, Sirdaryoning 10 % oqimi O'zbekiston hududida vujudga keladi.

Norin, Qoradaryo, So'x, Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryoning yuqori oqimlari respublikamiz hududidan tashqarida joylashgan, o'sha joylarda suv to'playdi suvni respublikamiz hududida sarflaydi.

1.3 O'zbekistonning asosiy daryolari va ularning to'yinish manbalari.

Amudaryo eng sersuv, suv yig'adigan maydoni eng katta daryo, qadimda yunon va rim Oqsu, arablar Jayxun mahalliy xalqlar Omul deb atagan. Xinduqush tog'ining shimol yonbag'rida 4950 m Vrevskiy muzligidan Vaxjir nomi bilan boshlanadi. Vohandaryo Zo'rko'ldan keyin Pomir bilan qo'shilib Panj o'ngdan G'unt, Bartang, Yazg'ulom, Vanch, Qizilsuv kelib qo'shiladi, Panj Vaxsh bilan qo'shilgach Amudaryo deyiladi. O'ngdan Kofirnihon ham Surxondaryo chapdan Qunduzdaryo kelib quyiladi.

Amudaryoning uzunligi 2540km. shundan 1500 km tekislikdagi qismi O'zbekiston hududidan oqib o'tadi.

Sheroboddaryo esa Amudaryoga ba'zi yillari quyiladi, Ko'hittangdaryo esa umuman etib kela olmaydi.

Amudaryo havzasi 465 ming km² shundan 227,3 km² tog'li qismga to'g'ri keladi. Tog'li qismida tor o'zanda shiddat bilan oqib o'tib har 1 km² ga 4 m, ayrim joylardan 10 m pasayib boradi.

Suv tezligi tog'larda sekundiga 6 m.gacha boradi. Aksincha tekisliklarda u nishab o'zanda sekin oqib har bir km.ga 0,2-3 m ga pasayadi. Oqimning o'rtacha tezligi sekundga 1-3 m.ga tushib qoladi. Natijada daryo qirg'og'ini tez yuvib, o'zanni tez o'zgartirib turadi. Bu hodisani mahalliy xalq "Degish" deb ataydi: Daryo qirqog'ini sutkasiga bir necha metrgacha yuvadi. 1898 yil Amudaryo Karki shahari yonida 6 minut ichida 10 m qirg'og'ini o'pirib yuvib ketganligi ma'lum., 1932 yil To'rtko'l yaqinida 500 m qirg'oq yuvilib ketgan.

1961 yil yilgacha Orol dengiziga doimo quyilib turganda dengizga yetmasdan tarmoqlanib, umumiy maydoni 11 ming km kv bo'lgan del'ta hosil qilgan edi.

1961 yil Orolga 29,2 km³ suv quygan bo'lsa, 1988 yil 16 km³, 1991 yil 12,5 km³ suv quygan.

Sirdaryo O'rta Osiyoning eng uzun daryosi 2982 km, suvining ko'pligi jihatidan 2 o'rin (Amudaryodandan keyin)ni egallaydi. Sirdaryo Markaziy Tyanshanda joylashgan Oqsihiroq tog'idagi Petrov muzligidan boshlanuvchi

Qorasoy va Tarag'an daryo qo'shilishidan vujudga keladi. Norin va Farg'ona tizmasidan suv yig'uvchi Qoradaryoning Namangan shahri yaqinidagi Baliqchi qishlog'i yonida birlashishidan vujudga keladi.

Qadimda yunonlar Sirdaryoni Yaxartes (Yaksart), arablar Sayxun deb atagan. Beruniy asarlarida "Xasat" shaklida tilga olinadi. Sirdaryoning Farg'oma vodiysida doimiy irmog'I yo'q.

O'ng irmoqlari: Chortoqsoy, Kosonsoy, G'ovasoy, Chatoqsoy, Pochcha ota.

Chap irmoqlari: Oqbura, Aravansoy, Isfayramsoy, Shoximardonsoy, So'x, Isfara, Xo'jabaqirgan, Oqsuv.

Sirdaryo Farg'ona vodiysidan oqib chiqqach, o'ng tomondan unga Oxangaron, Chirchiq, Kalas, Aris kabi irmoqlar kelib quyiladi.

Lekin Sirdaryo suvining 78 % Norin, 22 % Qoradaryo zimmasiga to'g'ri kelganligi tufayli u ko'proq Norin daryosi oqimi xususiyatlariga o'xshashdir.

xisobidan to'lin suv iyun (17,5 %).

Sirdaryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Bekobod yaqinida 568 m^3

Sirdaryo suvida 1 m^3 suvida 2,17 kg loyqa bor.

1 yil o'rta xisobda 110 kun muzlaydi (sovuq kelganda 140 kungacha) (noyabr, mart oylarida).

Sirdaryoning asosiy irmoqlari. Chirchiq va Ohangaron.

Chirchiq daryosi Sirdaryoning eng katta va sersuv o'ng irmog'I hisoblanib, G'arbiy Tyanshan tog' tizmalaridagi qor va muzliklaridan Chotqol, Ko'ksuv, Pskon nomi bilan boshlanadi. Chorbog' botig'ida (Chorbog'suv ombori o'rnida) Chotqol va Pskom qo'shilib Chirchiq nomini oladi. Chorbog' botig'idan chiqqach Chirchiq daryosiga o'ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh va chap tomondan Oqsoqota, Parkentsoy, Boshqizilsoy irmoqlari kelib qo'shiladi.

Chirchiq daryosi uzunligi 174 km, havzasi 13240 km^2 tashkil etadi. Suv sarfi Chimboyliq qishlog'igacha tor o'zamda tez oqadi., so'ngra to Sirdaryogacha keng o'zamda ilonizi bo'lib oqadi. $220 \text{ m}^3\text{g'sek}$, o'rtacha loyxa tog'larda 1 m^3 260 g, tekisliklarda 520 g.

Ohangaron daryosi Sirdaryoning Chirchiq daryosidan keyin ikkinchi yirik o'ng irmog'idir. Uning uzunligi Oqtoshsoyning boshlanish joyidan Siurdaryogacha 236 km, suv yig'adigan havzasining kattaligi 7710 kv.km. Ohangaron daryosi yuqori qismida Qurama tizmasining yonbag'ridan oqib tushuvchi buloq va jilg'alarining qo'shilishidan vujudga kelgan Oqtoshsoy nomi bilan boshlanadi. So'ngra Chovlisoy, Yakkaarchasoy, Yertoshsoy, Lukentsoy, Qorabovsoy, Nishobsoyni qo'shib oladi.

Suv sarfi (Turk qishlog'I yonida) $22,8 \text{ m}^3$, eng ko'p suv sarfi 460 m^3 . Ohangaron daryosining suvi ko'plab sug'orishga sarflangani tufayli yozda Sirdaryoga yetmasdan qurib qoladi.

Loyqaligi 1 m^3 0,170 kg.

Zarafshon daryosi : O'rta Osiyo, Zarafshon va Oloy to'lari tutashgan Ko'ksuv (Mastchoh) tog' tugunidagi Zarafshon muzligidan 2772,5 m balandlikdan Mastchoh nomi bilan boshlanadi. Mastchoh Ayniyqishlog'i yonida Fandaryo bilan qo'shilgach Zarafshon nomini oladi. Zarafshon qadim Amudaryoga 20 km etmasdan Sandikli qumligiga shimilib ketar edi. Uzunligi muzlikdan Sandikli qumigacha 751 km edi. Daryoning suv yig'adigan maydoni 12374 km^2 .

Quyi qismida Qorako'ldaryo nomini olib, Qoraqul shahri yaqinida 2 tarmoqqa bo'linib, Toyqir Dengizko'lga, Sarbozor esa Chigarko'lga yetib borar edi. Enfilikda esa Zarafshonning suvi ko'plab sug'orishga sarflanishi tufayli daryo u yerga yetib bormaydi. Zarafshon daryosining tog'li qismi Tojikistonga Ravatxo'ja tog'idan quyi qismi O'zbekistonga qaraydi.

Zarafshon daryosiga 200 ga yaqin daryo va soylar kelib quyiladi.



Eng muhim chap irmoqlari: Fandaryo, Kishtutdaryo, Mog'iyondaryo, Urgitsoy.

O'ng irmoqlari: Rom, Tursinsoy, Kattasoy. To'lin suv iyun-avgust.

Suv sarfi Rovotxo'ja to'g'onida $165 \text{ m}^3/\text{sek}$.

Oqiziqlar 1 km^2 suv yig'adigan maydondan 401 tonna oqiziq yuvsan tog'larda 943 t etadi. Loyqa 1 m^3 0,88 kg.

Zarafshon suvi tekislik qismida 76 kun iliq kelganda 2 kun muzlaydi.



21- rasm. Zarafshon daryosi-
ning irmog'i — Fandaryoning
yuqori oqimi.

Qashqadaryo: Hisor g'arbiy qismida joylashgan. Tog'tosh davoni yaqini yaqinida 3000 m kichik soycha sifatida boshlanadi va Muborakka 10 km yetmasdan qurib keladi. Shu masofada daryoning uzunligi 332 km suv yig'adigan havzasining maydoni 8750 km².

Chap irmoqlari Jinnidaryo, Oqsuv, Ganxoz, Yakkabog', G'uzor.

O'ng irmoqlari yo'q soy va jilg'alar.

Qor suvidan to'yinadi. Eng ko'p suv sarfi oyida.

Yillik suv sarfi Vorgonzi k yonida 5,46 m³g'sek.

Suvning 75 % Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog'ga to'g'ri keladi.

Surxondaryo- Xisorning g'arbiy qismining janubiy yonbag'ridan joylashgan doimiy qor va muzliklaridan boshlanuvchi To'polon va Qoratog' daryolari qo'shilishidan hosil bo'ladi, Surxondaryoning uzunligi 196 km.

O'ng tomonidan irmoqlari Sangardak, Xo'jaipok kabi yirik irmoqlarini qo'shib olib, Amudaryoga kelib quyiladi.

To'lin suv mart-iyun (qor va muz) 65,2 % suvi toshib keladi.

O'rtacha ko'p yillik suv sarfi Qorovultepa qishlog'I yonida 70,2 m³.ni tashkil etadi. Surxondaryo O'zbekistonning loyqa daryolaridan biri bo'lib, Marguzar qishlog'I yonida har kubometr suvida 9,90 kg loyqa bor. 1 yil o'rtacha 6050 ming tonna oqiziq oqizadi.

Sangzor daryosi Jizzax viloyatidagi daryo. Turkiston tog' tizmasidagi Guralash davoni yaqinida 3400 metr balandlikdagi buloqlardan boshlanadi va Jizzax shahridan 70 km shimoli –g'arbda, Qizilqum cho'lining janubi sharqiy chekkasidagi Tuzkon ko'liga quyiladi. Uzunligi 198 km, havzasining maydoni 3220 km.kv (tog'li qismi). Bosh qismi Guralashsoy nomi bilan ataladi. Kichik Qorashaqshaq qishlog'i yonida Jontekasoy qo'shilgandan so'ng u Sangzor nomini oladi. Uning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 4m kub/sek.

Sangzorga 80 dan ortiq soy va jilg'alar (Xo'jasoy, Boyqo'ng'irsoy, Ko'kjarsoy, Oqqurg'onsoy, Tangatopdisoy, Sutariq, Baxmazarsoy, Navqasoy va boshqalar) qo'shiladi.

O'zbekiston daryolarining o'rtacha ko'p yillik suv sarfi va yillik oqimning oylar hamda alohida davrlar bo'yicha taqsimlanishi

Daryolar va kuzatish nuqtasi	Oylik, yillik va alohida davrlar bo'yicha o'rtaacha suv sarfi, m/soniya va yillik oqimiga nisbati, % hisobida															
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	O'r-tacha	III-IV	VII-IX	X-XII
I	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
Amudaryo (Karki)	767 3,1	746 3,2	911 3,8	1630 6,8	2710 11,2	380 16,0	4490 18,6	3730 15,5	2280 9,5	1210 5,0	927 3,8	839 3,5	2010 100	—	—	—
Zarafshon (Dupuli)	38,4 2,1	36,2 1,9	34,9 1,9	50,1 2,7	142 7,6	336 18,1	465 25,0	378 20,3	192 10,3	85,8 4,6	56,7 3,1	45,0 2,4	165 100	—	—	—
Qashqadaryo (Varganza)	3,42	5,22	10,7	15,7	10,5	5,29	3,09	2,41	2,17	2,13	2,31	2,81	5,46	64,0	71,7	24,3
Surxondaryo (Qorovultepa)	16,27	19,3	31,8	109	182,2	199,3	148,9	77,6	39,5	22,1	19,30	17,62	70,2	—	—	—
Sirdaryo (Ko'kbuloq)	517 5,9	510 5,9	582 6,7	829 9,5	1120 10,0	1440 16,6	1070 12,3	562 6,5	416 5,8	475 5,5	541 6,2	530 6,1	732 100	—	—	—
Norin (Uchqo'rg'on)	175 3,4	163 3,2	217 4,3	335 6,5	725 14,1	1022 20,0	871 17,0	613 12,0	352 6,9	252 4,9	216 4,2	180 3,5	429 100	—	—	—
Qoradaryo (Baliqchi)	108 7,5	98,6 6,8	121 8,4	174 12,0	213 14,7	163 11,3	78,6 5,2	69,2 4,8	63,5 4,4	109 7,5	128 8,9	123 8,5	124 100	—	—	—
Chirchiq (G'azalkent)	70,9 2,6	68,9 2,6	99,0 3,7	258 9,6	456 17,3	589 21,8	455 16,9	261 9,7	149 5,5	106 3,9	92,2 3,4	79,3 3,0	221 100	—	—	—
Ohangaron (Turk)	5,33 1,9	7,55 2,8	16,8 6,2	54,5 19,9	83,8 30,7	50,6 18,6	20,3 7,4	9,17 3,4	5,83 2,2	6,79 2,5	6,62 2,4	5,75 2,1	23,5 100	—	—	—
														75,4	12,9	4,7

O'zbekiston daryolarining toyinish xususiyatiga ko'ra turlari:

1. Muzlikni qor suvlaridan to'yinadigan daryolari.
2. Qor-muzlik suvlaridan to'yinadigan daryolar.
3. Qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
4. Qor yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar.

4500 m boshlanadigan daryolar asosan muzlik va qorning erishidan suv oladi. Amudaryo, Zarafshon, Isfayramsoy, Surxondaryo, Isfara kabi daryolar kiradi. To'lin suv davri iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi. Yillik oqimning 30-50 %ni iyul sentyabr oylarida oqizadi. suv oqadi. Eng ozaygan davri dekabr-mart oylariga to'g'ri keladi.


Ikkinchi xildagi daryolarga O'zbekiston tog'larining dengiz sathidan 3400-4500 m baland qismlaridan boshlanadigan Sirdaryo, Norin, Qoradaryo qor va muzlikdan boshlanadi.

Uchinchi xil daryolar 3400 m (doimiy qor chizig'idan pastdan) Qashqadaryo, G'uzordaryo, G'avasoy, Sangardak, Sangzor kabi daryolar kiradi. to'lin suv mart-may oyiga (60 %) eng kam suv avgust-sentabrga to'g'ri keladi.

To'rtinchi xil daryolar 2000 m pastdan boshlanadi, asosan yomg'irdan to'yinadi. Mart-may oylari 80 % tashkil qiladi. Yozning ikkinchi yarmida suvi kamayib qurib qoladi. Zomin suv, Shyeroboddaryo, Tursundaryo, Oxangaron, Qalasdaryolar va soylar kiradi.

O'ZBEKISTONNING ASOSIY DARYOLARI

Nomi	Uzunligi, km	Havza maydoni, km ²	Manbal	Quyilish joyi	To'yinishi
Sirdaryo	2982	150100	Markaziy Tyan Shan	Orol dengizi	Erigan muzliklar va qorlar suvlari
Amudaryo	2660	30900	Pomir tog' o'lkalari	Orol dengizi	-----/-----
Zarafshon	877	12300	Turkiston, Zarafshon tizmalari	Qizilqum cho'li	Erigan muzliklar va qorlar suvlari
Norin	578	59990	Markaziy Tyan Shan	Sirdaryo	-----/-----
Chirchiq	397	27500	G'arbiy Tyan Shan	-----/-----	-----/-----
Qashqadaryo	373	12000	Hisor tizmasi	Qarshi cho'li	-----/-----
Sanzor	298	3220	Turkiston tizmasi va Zarafshon daryosi	Arnasoy ko'li	Erigan muzliklar va qorlar suvlari
Ohandaryo	236	5262	Chotqol, Qurama tizmalari	Sirdaryo	-----/-----
Surxondaryo	196	13500	Hisor tizmasi	Amudaryo	-----/-----
Qoradaryo	180	30100	Farg'ona, Oloy tizmalari	Sirdaryo	-----/-----
Sheroboddaryo	177	2950	Hisor tizmasi	Amudaryo	Erigan qor suvlari



SHARTLI BELGILAR

DARYO OQIMLARINING YILLIK O'RTACHA KO'PYILLIK MIQDORI
(1 kv. km da l/sek)

0 5 10 20 30 40 50 60 70 80 90 100

DARYOLARINING TO'YINISH MANBALARI

- Muzlik
- Muzlik-qorliq
- Qorliq-muzlik
- Qorliq-yong'irli
- Ta'riflab o'tilmaydigan daryolar
- Insoniyatning xo'jalik faoliyati tufayli tuzilishi o'zgarib qolgan daryolar va suv yig'ish manbasini bo'shonlatish

Masshtab 1:5 500 000

II Bob. O'zbekiston daryolarining qishloq xo'jaigi rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.

2.1 Qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda daryolarning roli va ulardan foydalanish.

Suv oqimlari er yuzasi relefini o'zgartiradi, tuproq hosil bo'lishida, o'simliklarni rivojlanishida, halq ho'jaligi va maishiy turmushda muhim ahamiyatga ega.

Kishilar yerlarni sug'orish uchun kanalar qurub ser suv daryolarda kam suvli daryo havzasiga olib borganlar. Bunga zarafshon suvining bir qismi Tuyatortar kanali orqali Sangzor daryosiga, bir qismi Eski anxor kanali orqali Qashqadaryoga, Amu-Buxoro magistsral kanali orqali Amudaryo suvi quyi Zarafshonga burulgani misoldir. O'zbekiston hududida sug'oriladigan mintaqalardan sho'r suvlarning chiqarib tashlanishi oqibatida Aydar, Tuzkon, Arnasoy, Sudoch'e, Sarqamish, Sho'rko'l, Ulug' sho'rko'l, Oq ko'l kabi bir qancha sho'rko'llar vujudga kelgan.

O'zbekiston daryolari asosan tog'li qismlarda hamda Qirg'itson va Tojikitsondagi tog'lardan suv oladi. Agar Amudaryo va Sirdaryoning yillik oqimini 100 % desak Amudaryoning 8 %, Sirdaryoning 10 % oqimi O'zbekiston hududida vujudga keladi.

Daryolardan foydalanish maqsadida 156 ming km kanal qurilgan.

Sanoat, maishiy communal soxalar uchun 7,5-8 km³ suv olinmoqda. 15 % sarflanib 85 % qisman tozalanib tabiiy xavzalarga quyiladi.

Energetik patinsiali 8,76 mln KVT (eng muhimlari CHorvoq GES (19ta) Farxod GES jami eng 3,2 % bemoqda.

Baliq ovlash, rekrasion maqsadda, kema katnovida foydalanilmoqda.

Jumladan 42 shaharning 29 tasida kanalizatsiya va tozlash inshootlari bor 13 tasida yo'q.

Lagerlar, dam olishzonalari, kanalizatsiya, tozlash inshootlari yo'q.

Qulay chapda suvlari to'lib o'z oxirida sayozlanib qoladi, ba'zilar qurib sho'rxakka aylanadi.

Eski daryo o'zanlaridagi ko'llar suvi daryodan tamomila ajralmas bo'lsa chuchuk bo'ladi, ajralib qolsa sho'r bo'ladi.

Ko'llarning rejimidaryo rejimiga bog'liq.

Sug'oriladigan maydonlardan chiqarib tashlaydigan zovur suvlarining to'planishidan v/κ (Sariq(κ)osh, Aydar, Arnasoy, Dengizko'l Qoraqir) esa o'ta sho'r bo'lib tarkibida har xil kimyoviy zaharli moddalar uchraydi.

Suv sathi ekin dalalarini sug'orish davrida ko'tarilib qishda ancha pasayib qoladi.

1 yil 4,2 mln.gek yerni sug'orish sho'rini yuvish uchun 53-55 km³ suv olinadi. 80 % sug'orishga sarflansa 20 % sho'r yuvishga sarflanadi.

Shundan 25-30 % qaytarma suv bo'lib ifloslanib tibbiy xavzalarga quyiladi, yoki sug'oriladigan chiqarib yuboriladi.

Daryolardan foydalanish maqsadida 156 ming km kanal qurilgan.

Sanoat, maishiy communal soxalar uchun 7,5-8 km³ suv olinmoqda. 15 % sarflanib 85 % qisman tozalanib tabiiy xavzalarga quyiladi.

Energetik patinsiali 8,76 mln KVT (eng muhimlari Chorvoq GES (19ta) Farxod GES jami eng 3,2 % bemoqda.

Baliq ovlash, rekrasion maqsadda, kema katnovida foydalanilmoqda.


Jumladan 42 shaharning 29 tasida kanalizatsiya va tozalash inshootlari bor Lagerlar, dam olishzonalari, kanalizatsiya, tozalash inshootlari yo'q.

2.2 Qishloq xo'jaligini rivojlanishida daryo suvlarining taqsimlanishi va minyerallashish darajasi.

O'zbekiston daryolari muhim tabiiy boylik sifatida uning xalq xo'jalik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa iqlimi quruq, sug'orib dehqonchilikka asoslangan hududiniz uchun daryolar sug'orishdagi ahamiyati kattadir. Hozir O'zbekistonda 4,2 mln gektar yuerni sug'orish va suvini yuvish uchun daryolardan yiliga 53-55 metr kub suv olinmoqda. Qishloq xo'jalik uchun olinayotgan 53-55 metr kub suvni 80% ni yyerlarni sug'orishga sarflansa, qolgan 20% tuproq sho'rini yuvishga sarflanmoqda.

O'zbekistonda sug'orishga olingan daryo suvlarining 25-30%i zovur-drenaj orqali ba'zi joylarda (Farg'ona, Surxondaryo va Samarqand botig'i) tabiiy holda sizib qaytarma suvlar sifatida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanib tabiiy havzalarga qo'shiladi yoki sug'oriladigan mintaqadan tashqariga chiqarib tashlanadi.

O'zbekiston daryolari suvlaridan oqilona foyfalanish maqsadida 156 ming km kanal qurilgan bo'lib, 22 ming km uzunlikdagi qismi xo'jaliklararo, qolgan 134 ming km uzunlikdagi xo'jaliklar ichidagi kanallarga to'g'ri keladi. O'zbekiston daryolarining yana sanoat tarmoqlarida, maishiy kommunal xo'jalikni suv bilan ta'minlashda ahamiyati katta. Hozir O'zbekistonda sanoat tarmoqlari, maishiykommunal xo'jaligi va boshqa sohalarni suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun daryolarning 7,5-8,0 km.kub suv olmoqdalar.



6- rasm. O'zbekistonda suvlarni ifloslovchi asosiy tarmoqlar.


2.3 O'zbekiston xo'jaligida daryolardan foydalanishda suvlarni toza saqlash

Daryo suvlarining har xil ximikatlar va tuzlar bilan ifloslanishida zovur drenaj suvlari salmog'i katta. Hozir O'zbekistonda zovur drenajlarning umumiy uzunligi ming km bo'lib, ulardan yiliga 13-14 metr kub suv ifloslangan qaytarma suv vujudga kelmoqda. Ularning bir qismi sug'oriladigan yyerlardan tashqaridagi tabiiy chuqurliklarga chiqarib tashlansa, qolgan qismi suv havzalariga qo'shilib uni ifloslaydi.

O'zbekiston daryolari suvi ifloslanishida zavod-fabrika, kommunal xo'jalik, transport va sog'lomlashtirish tashkilotlaridan chiqayotgan 300-350 mln m³ iflos oqovalar ham sababchidir. Hozircha mamlakat va viloyatlar ixtiyoridagi 42 shaharning 29 tasidagina kanalizatsiya va tozalash inshootlari mavjud. Buning ustiga mamlakatimizning go'zal manzarali joylarida qurilgan dam olish uylari, lagyerlar va boshqa korxonalarda chiqayotgan iflos suvlar markazlashgan kanalizatsiyaga ulanmaganligi, tozalovchi inshootlarning yo'qligi tufayli tabiiy havzalarga qo'shilib ketmoqda.

O'zbekiston daryo suvlarining ifloslanishi oqibatida suvning tabiiy holati buzilib, yashil suv o'tlarining, baliqlarining kamayib ketishiga, sug'oriladigan yyerlardagi ekinlarning o'sishiga va natijasida kishilar salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Hatto sanoatlashgan joylardan oqib o'tadigan Chirchiq, Zarafshon kabi daryo suvlari tabiiy holda ichishga yaroqsiz bo'lib qoldi.

O'zbekiston daryo suv boyliklarini bundan buyon toza saqlash uchun ekin dalalaridan chiqayotgan zovur drenaj suvlarini iloji boricha tabiiy havzalarga tashlashni man etish; zovur –drenaj suvlarini yig'ib, Amudaryo va Sirdaryoga parallel magistral zovur qazib Orolga oqizishga yerishish: qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi biologic uslubda kurashishni joriy etish: zavod-fabrika, maishiy-kommunal va boshqa korxonalardan chiqayotgan iflos-oqova suvlarini tozalab, so'ngra suv havzalariga tashlashga erishish zarur.



5- rasm. O'zbekistonda ishlatiladigan suvlarning taqsimlanishi.

— Geografiya, 7- sinf uchun

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston daryolari va ularning joylashuvi avvalo hududimiz re'lefi, iqlimi va inson faoliyati bilan bog'liqdir. Masalan, re'lef ichki suvlarga, shu jumladan oqim hosil bo'lish jarayoniga bevosita hamda tabiiy geografik omillar orqali bilvosita ta'sir etadi. Chunki tog'-yonbag'rlarining ko'pincha tik bo'lganligi tufayli yoqqan yomg'ir, erigan qor va muz suvlari tezda pastga tushib, soy va daryolarni hosil qiladi.

O'zbekistonning tekislik qismida yog'in juda kam bo'lganligi uchun daryolar ham kam. Shu sababli O'zbekistonning tekislik qismida transit daryolarni hisobga olmaganda doimiy oqimga ega bo'lgan daryolar yo'q hisobi.

Bundan tashqari daryo suvlarining oqimi va hajmining o'zgarishiga kishilarning xo'jalik faoliyati ham ta'sir etadi. Chunki O'zbekistonning tekislik qismida unumdor, lekin qirg'oqchil yerlarning mavjudligi ularni sug'orishni taqazo etadi. Bining uchun esa daryolardan ko'plab sug'orishga suv olinadi, oqibatda esa ularning oqimiga ta'sir etib, ba'zilar na'lum havzaga yetib bormasdan, tog'dan tekislikka chiqqach qurib qoladi. Shuningdek kishilar yerlarni sug'orish uchun sersuvli daryo havzasidan kanallar qurib kam suvli daryo havzasiga uning bir qismi suvini burib yuborib daryolarning suv oqimini qayta o'zgartiradi. Bunga Zarafshon suvining bir qismi Eski Tuyatortar kanali orqali Sangzor daryosiga, Amu-Buxoro magistral kanali orqali Amudaryo suvining bir qismini Quyi Zarafshonga burib yuborilganligi yaqqol misoldir.

Shunday qilib, O'zbekiston ichki suvlari tirik organizm va ayniqsa insonlarning hayoti va xo'jaligi faoliyati uchun eng muhimdir.

Asosiy foydalanilgan adabiyotlar

1. Alibekov L. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Samarqand 2006 yil.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. (Oliy o'quv yurtlari geografiya yo'nalishi talabalari uchun qo'llanma). Toshkent, O'qituvchi, 1996 yil
3. Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. (O'quv qo'llanma) Toshkent, O'qituvchi. 2002 yil.
4. Mo'minov. O. P. Baratov. M. Mamatqulov. R. Rahimbekov O'zbekiston tabiiy geografiyasi. 7- sinf maktab darsligi. Toshkent. "Oqituvchi" 2000 yil.
5. 6-sinf atlas. Toshkent. "Oqituvchi" 2011 yil.
6. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1-12 tomlar. 2006 yil
7. G'ulomov P. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O'zMU, 2000 yil.
8. 7- sinf atlas. Toshkent. "Oqituvchi" 2011 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Qoriyev. M.V., A. V. Xisamov. P. Baratov. va boshq. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. "Oqituvchi" 1965 yil.
2. L.A. Alibekov. S.A. Nishonov. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 1983 y